YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

Siddiqova Umidaxon Sohibjon qizi
QDPI O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlarning virtuallashuv sabablari va omillari haqida fikr yuritilgan. Yoshlarni virtual olamdan chiqarish uchun bir qancha sabablar dalillar asosida ko'rsatib berilgan.
Kalit so'zlar: yoshlar, virtuallashuv, internet, telefon, vaqt taqsimoti, maqsad, kelajak, muloqot, maktab, oila, mahalla.

XXI asr-texnika-taraqqiyoti asri. Ushbu davrda texnika jadal sur'atda rivojlanish barobarida uni boshqaruvchi insonlarni ham o'z to'riga yopishtirib oldi. O'rgimchak to'ri deb bejiz aytilmaganiga ko'p marta guvoh bo'lish mumkin. Kimdir internet orqali qimor o'ynaydi, yana kimdir davlatimiz kelajagiga rahna soluvchi qo'poruvchi guruhlarga a'zo bo'ladi, ba'zilar esa kundalik hayotda faqat vaqt o'tkazish uchun bir- biri bilan muloqot qiladi. Bu kabi ayanchli sabablarni qator keltirish mumkin.

Har narsadan maqsadli va samarali foydalanish juda katta mas'uliyat. Inson qilayotgan ishining naqadar ahamiyatli va hamma uchun foydali ekanligini anglab, o'sha qo'yilgan maqsad sari jadal qadam tashlasa ko'zlangan natija amalga oshadi. Maqsadsiz qilingan harakat natijasi har doim nolga teng bo'ladi. Atrofga nazar solib qaralsa, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning asosiy qismi yoshlardir. Yoshlar yurt tayanchi hisoblanadi. Agar shu asosiy qism internetdan maqsadli foydalansa, qilgan ishlari yurt taraqqiyoti, fan ravnaqi uchun xizmat qilsa nur ustiga nur. Aksi bo'lsa, mamlakat o'sish va rivojlanishi keskin pasayadi. Xo'sh, hamma ham internetdan nima maqsadda foydalanayotganligi xususida o'ylab ko'rganmi? Soatlab nima uchun qimmatli vaqtini sarflayapti? Mana shu sarf bo'lib ketgan vaqti haqida so'ralsa tayinli javob ayta oladimi? Yoki bo'lmasa, shu vaqtning xuda-bexuda sarflanganligi uchun vijdon qiynaladimi va yo mazmunli hamda barokatli o'tganidan ko'ngli to'ladimi? Ushbu savollarni har bir tarmoq foydalanuvchisi o'ziga berib kerakli xulosalarni chiqarishi darkor. O'z-o'ziga baho bera olgan inson haqiqiy ideallikka erishadi. Xo'sh, virtuallashuv sabablari nimalardan iborat? Ularni qanday bartaraf qilish zarur? Yoshlarning odamlardan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda bo'ladigan suhbat ko'proq qiziqtirishiga nima sabab va bunday bo'lishiga kimlar aybdor? Ijtimoiy tarmoqdagi suhbat yoshlar uchun foydalimi yoki zararli? Yoshlarni virtual hayotdan haqiqiy hayotga olib chiqish omillari bormi? Quyida ushbu savollarga javob beriladi.

Vituallashuv sabablaridan biri vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik. Yoshi katta insonlarda vaqtdan unumli foydalana olishlik ko'nikmasi bor. Ular xato qilganlarida ko'plab tanbehlar eshitishgan. O'zidan katta buvi va bobojonlarning aytganlarini qilib rag'bat olgan, aksini qilganlarida jazolanishgan va qilgan ishlari xato ekanligi haqida xulosa chiqarishgan. Yoshlar hali g'o'r, pishib yetilmagan. Shuning uchun o'tish davrida, ayniqsa, ko'plab muammolarga duch kelishadi. O'tish davri inqirozidan eson-omon o'tib olish uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalar hosil qilishlari kerak. Bunda ularga ota-onalari, maktab muassasasida faoliyat yuritayotgan mas'ul shaxslar yordam berishlari zarur. Agar ularda sezilarli natija kuzatilmasa, shu ikkita sanalgan topshiriq ustida amallar bajarish kerak: turli xil yopiq testlar, anonim so'rovnoma va boshqalar.

Mavjud kamchiliklarni butunlay bartaraf qilish uchun yoshlar bandligini ta'minlash kerak. Bo'sh vaqt topolmagan bola bir-ikki kun qiynaladi, keyingi kunlari internetdan boshqa zarur bo'lgan ishlar borligini anglab yetadi. Ota-onalar, iloji boricha, maktab o'quvchisiga sensorli telefon ishlatishni taqiqlasalar yaxshi natijalarga erishiladi. Maktab hududiga

o'quvchilarning telefon va boshqa uyali vositalar olib kirishiga to'sqinlik qilish va tartib buzilsa o'quvchining ota-onasiga jarima berish kabi maktab ichidagi qoidalarni yaratish kerak.

Ayni paytda virtuallashuvga ota-ona ham aybdor. Farzandlar nazoratiga bee'tiborlik, haddan ziyod mehr beraman deb telefon ushlatib qo'yish, pul topaman deb bolalar tarbiyasining chetda qolib ketishi kabi bir qancha misollar keltirib o'tish mumkin. Farzand tarbiyasi va kamoloti ota-ona uchun oliy vazifa bo'lishi kerak. Komil va solih farzand tarbiya qilgan inson chinakam baxtga erishadi hamda ularga ikki dunyo saodati beriladi deyilgan. Vatan ravnaqi uchun ham komillik sari yetaklovchi yo'lni ota-ona farzandiga ko'rsatib qo'ymog'i darkor. Virtuallashuvning yoshlar uchun qulay tomoni shundan iboratki, ular nojins tomon bilan bemalol suhbat olib boradi. Haqiqiy hayotda esa o'ziga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan jins vakiliga to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish noqulay. Sababi, uyat, odob, sharm kabi fazilatlari bor o'zbek bolasi suhbatdoshiga nisbatan o'ta beodob so'zlarni ishlata olmaydi. Chunki, yuqorida sanab o'tilgan fazilatlar azaldan o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Ammo yaxshi fazilat egasi bo'lgan ayrim bolalarning ijtimoiy tarmoqdagi suhbatlariga qaralsa, ularning bu yozishmalaridan uyalib ketadi odam. Agar inson bandlik bilan ta'minlansa, ikkilamchi qiziqishlarga vaqti ham bo'lmaydi. Aniq bir maqsad qo'yilib, boshqa manbalarga chalg'imay, faqat ko'zlangan maqsad sari internetdan foydalanish yoshlarni kamolotga yetaklaydi aksi bo'lsa berilgan vaqt uvol bo'ladi, hayotda bu vaqt uvolining badali to'lqnadi. Bunga qator misol va dallilar keltirish mumkin. Yoshlarni virtuallikdan haqiqiy hayotga olib chiqishning bir qancha omillari bor. Avvalo, ijtimoiy tarmoqdan yoshlar qay payt foydalanishiga diqqat qaratish kerak. Maktab o'quvchilari o'rgimchak to'ri bo'lmish internetdan dars paytida va kechqurun uxlashdan avval ko'proq foydalanishadi. Dars payti o'qituvchisining darsiga quloq solmay turli befoyda vidio va boshqa chalg'ituvchi materiallardan foydalanishadi. Yuqoridagi sanalgan qoidalarga amal qilinsa, o'qish sur'ati sezilarli darajada yuqorilaydi. Ba'zi bir oilalarda farzand 12 yoshga to'lishi bilan pul topish uchun safarbar qilinadi. Bu ayanchli hol odatiy tusga kirganligi hech kimga sir emas. Yoshlar o'z iqtidorini yuksaltirishi uchun sharoit u yoqda tursin, hatto ularni maktabga yubormaslik holatlari uchrab turipti. Aslida bu vaziyat bir kishining emas butun boshli xalq muammosi. Moddiyatga bo'lgan ehtiyoj ilm olishga to'siqlik qilyapti. Tanlovga qatnashmoqchi bo'lgan iste'dod egasi dalalarda mol, qo'y boqib yuripti. Yoshlarni virtuallikdan chiqarish uchun dastlab ularning qiziqish va iqtidoriga mos ravishda sharoit yaratish zarur. Qiziqishlariga qarab kasb va hunarga yo'naltirish ota-onaning vazifasi. Oila, mahalla va maktablarda "Adabiyot kechalari" tashkil qilish lozim. Haftada bir marotaba o'tkaziladigan kecha yakunida g'olib o'quvchilarga kitoblar sovg'a qilish lozim. Bu bilan odamlar kayfiyatiga kayfiyat qo'shiladi, g'oliblik insonlarga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Adabiyot insonni qalbini poklaydi, yaxshi va yomonning farqiga borishni ko'rsatib beradi. Bundan tashqari "Oila, mahalla, maktab" uchburchagini tashkil qilish kerak. Bu bir loyiha bo'lib, maktab o'quvchisi va bitirib o'qishga kira olmay uyda qolib ketgan yoshlar uchun yaratiladi. Unda turli xil mablag'li yutuqlar joriy qilinadi. Yutuq fondi 5 milliondan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Bunday yutuqli tanlov yilda 2 marta o'tkazish uchun belgilangan bo'lib, bunda yoshlar bandligini ta'minlashga doir dastur va nizom ishlab chiqiladi. Bu faqat bir mahalla uchun emas, balki butun bir mamlakatdagi mahallalar uchun mosdir. Ayrim yoshlar ma'lum bir tanlovga qatnashish istagini bildirganda ota-onalari undan naf yo'qligi haqida aytib qiziqishlarini rad qilishadi va iste'dod egasi jismoniy mehnatga jalb qilinadi. Inson tirik ekan moddiyyatga ehtiyoj sezadi. Pul mukofoti esa ota-onalar o'z farzandining tanloviga qarshilik qilmasdan uni qo'llab-quvvatlashi uchun joriy qilinadi. Tanlov yutug'i uchun kitob qo'yiladigan bo'lsa, "Undan nima naf kelardi" deb ayrim insonlar rozi bo'lmasligi mumkin. Bu hammaga ayon hodisa bo'lib qoldi.

Mavjud muammo hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, yoshlarni ushbu qiyin vaziyatdan chiqarish uchun har bir mas'ul shaxs maksimal darajada harakat qilishi darkor. Yoshlar-kelajagimiz, vatanimiz gullab-yashnashi uchun, erkin va farovon hayot kechirishimiz uchun ularni yaxshi yo'lga yo'naltirish har birimizning qo'limizda. Ularga oq va qorani tanib olishlarida yordam berish zamon talabiga aylandi. Zero, O'zbekiston Respublikasi 1-prezidenti Islom Karimov "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli elning farzandlari sog'lom bo'lur" – deya boqiy yashovchi fikrlarni ilgari surgan. Yoshlarning aqliy hamda jismoniy salomatligi yurt uchun o'ta muhimdir. Virtuallashuv esa farzandlarni aqliy tomondan zaiflikka yetaklovchi omildir. Shuni aytib o'tish joizki, farzandlar qanday oilada kamol topmasin, qaysi oilada adabiyotdan zig'ircha bo'lsa ham adabiy muhit yaratilgan bo'lsa, o'sha oiladan nopok farzandlar yetishib chiqmaydi. Chunki adabiyot insonning ichki dunyosini poklaydi. Qalbi pok inson esa hech qachon yomonlikka ergashmaydi va Yaratgan bergan oliy ne'mat-umrni besamar ishlar bilan uvol qilmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlar forumida so'zlagan nutqida: "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizning kuch-g'ayratingiz va azmu shijoatingizga tayanamiz" , - deya fikr aytganlar. Ushbu so'zlar zamirida yoshlarga qaratilgan juda katta ishonch bor. Shunday ekan yoshlar Prezident ishonchini oqlash uchun bor kuchlarini sarflashi shart. Darvoqe, har bir inson dunyoga kelarkan ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun yuboriladi. Hayotdan zavq olib, umrning har bir daqiqasining qadriga yetaylik. Zero, hayot bizga ikkinchi bor berilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. / A.Madvaliyev. E. Begmatov-T:Akademnashr, 2012.
2. Xotirasidan ayrilgan ota, saratondan vafot etgan adib. U. Siddiqova.: Sharq yulduzi
3. www.kh.davron.uz

WORDLY KNOWLEDGE